

Sirdaryo viloyatida Asosiy kapitalga investitsiyalar


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
- II. Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
- III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
- IV. Sirdaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 2,1 barobarga ko'paydi, ayniqsa 2025-yilda eng katta o'sish sur'ati kuzatilib qariyb 8,6 trln so'm investitsiyalar asosiy kapitalga o'zlashtirilgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi



So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, 2025-yilda eng yuqori o'sish sur'ati – 134,6 % kuzatilgan bo'lsa, 2024-yilda eng past ko'rsatkich qayd etilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)


Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga 2026-yil yanvar-iyun oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 11 540,7 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 132,0 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2025-y.	2026-y.
Jami	11 540,7	132,0	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	791,5	113,8	7,9	6,9
respublika budjeti	358,1	161,1	2,5	3,1
Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	12,7	10,9	1,3	0,1
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	121,2	2,7 m.	0,5	1,1
shu jumladan, mln AQSh dollarida	10,0	2,9 m.	X	X
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	299,5	95,9	3,6	2,6
shu jumladan, mln AQSh dollarida	24,4	103,1	X	X
markazlashmagan investitsiyalar:	10 749,2	133,5	92,1	93,1
korxona mablag'lari	933,2	99,7	10,7	8,1
aholi mablag'lari	186,9	105,1	2,0	1,6
to'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	9 135,9	141,6	73,8	79,1
shu jumladan, mln AQSh dollarida	755,8	153,8	X	X
<i>shundan:</i>				
<i>to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	5 568,6	122,8	51,9	48,3
shu jumladan, mln AQSh dollarida	460,7	133,4	X	X
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	493,2	101,9	5,6	4,3

2026-yil yanvar-iyun oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 791,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 113,8 %ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 6,9 % ga yetdi.

Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da



2026-yil yanvar-iyun oylarida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 10 749,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 133,5 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 93,1 % ga yetdi.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari ichida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi yuqori bo'lib, jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 79,1 foizni yoki 9 135,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, korxona va aholi mablag'lari hisobidan 1 120,1 mlrd so'm asosiy kapitalga o'zlashtirilib jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 9,7 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

	Jami investitsiyalar, mlrd so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilot	Aholi	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
Sirdaryo viloyati	11 540,7	3,1	8,1	1,6	81,7	0,1	1,1	4,3
<i>shaharlar</i>								
Guliston	1 429,8	2,9	21,8	2,6	65,5	0,2	3,4	3,6
Shirin	587,6	0,4	1,1	0,5	97,7	-	0,3	-
Yangiyer	1 831,6	1,6	4,4	0,3	91,6	0,1	0,1	1,9
<i>tumanlar</i>								
Boyovut	746,2	8,4	3,7	2,8	83,8	-	1,1	0,2
Guliston	833,4	2,3	4,7	1,5	86,5	-	1,1	3,9
Mirzaobod	726,1	3,2	6,5	1,9	81,9	-	1,6	4,9
Oqoltin	1 052,1	1,3	18,2	0,8	70,6	-	0,3	8,8
Sardoba	793,7	4,8	3,0	1,3	79,7	0,0	0,4	10,8
Sayxunobod	1 036,6	2,8	3,7	1,9	86,6	0,5	1,3	3,2
Sirdaryo	1 663,9	3,5	8,8	2,4	79,1	-	0,7	5,5
Xovos	839,7	5,1	2,2	2,1	85,1	0,4	0,9	4,2

II. Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 4 748,7 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 41,1 % o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, % da	
		2025- y.	2026- y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	11 540,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 727,2	16,0	32,3
Yashash va ovqatlanish	73,5	0,2	0,6
ishlab chiqarish sanoati	4 748,7	41,2	41,1
elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	408,3	19,1	3,5
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	125,9	2,6	1,1
Qurilish	150,0	1,6	1,3
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	131,5	0,4	1,1
tashish va saqlash	231,8	2,5	2,0
boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	94,2	0,5	0,8
Davlat boshqaruvi va mudofaa	67,1	0,3	0,6
moliya va sug'urta faoliyati	43,7	0,2	0,4
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	39,5	0,2	0,3
ta'lim	215,4	2,8	1,9
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	343,1	0,8	3,0
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	63,2	0,1	0,6
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	1 068,2	10,9	9,3
boshqa faoliyat turlari	9,4	0,6	0,1


III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2026-yil yanvar-iyun oylarida jami asosiy kapitalga 780,2 mln dollar (9 435,4 mlrd so'm) xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lsa, ulardan 460,7 mln dollari (5 568,6 mlrd so'm) yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 59,0 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
Sirdaryo viloyati	5 568,6	299,5	3 567,3
<i>shaharlar</i>			
Guliston	122,2	29,0	786,0
Shirin	543,6		30,2
Yangiyer	1 218,7	28,5	430,8
<i>tumanlar</i>			
Boyovut	547,9	4,6	72,6
Guliston	284,4	25,0	411,5
Mirzaobod	578,0		16,8
Oqoltin	513,1		230,0
Sardoba	482,7		150,2
Sayxunobod	301,7	25,0	571,2
Sirdaryo	566,0	40,0	710,7
Xovos	410,3	147,4	157,3

Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, % da



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(choraklik\)](#)

IV. Sirdaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2026-yil yanvar-iyun oylarida jami 63,2 ming kv.m turar-joylar ishga tushirilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 105,4 % ni tashkil etdi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda aholi tomonidan viloyat bo'yicha jami 220 ta turar-joylar ishga tushirildi, ularning 123 tasi qishloq joylar hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar-joylar, kv.m	Ulardan: qishloq joylarda kv.m	Ichimlik suv tarmog'i, km
Sirdaryo viloyati	63 219	36 952	-
<i>shaharlar</i>			
Guliston	17 411	-	-
Shirin	1 093	-	-
Yangiyer	2 061	-	-
<i>tumanlar</i>			
Boyovut	5 053	5 053	-
Guliston	2 451	2 451	-
Mirzaobod	3 441	3 441	-
Oqoltin	1 719	1 349	-
Sardoba	1 617	275	-
Sayxunobod	6 600	5 265	-
Sirdaryo	17 577	16 293	-
Xovos	4 196	2 825	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ishga tushirilgan uy-joylarning umumiy maydoni \(yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan suv tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan qaz tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqigi ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Mazkur ko'rsatkichga shuningdek moliyalashtirishining barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hamda texnik va hayriya yordam, "MEN" shartnomalari, ta'sischilarning yangi asosiy vosita sifatidagi badallari, shuningdek intellektual mulkchilik obyektlariga va intellektual faoliyat mahsulotlariga investitsiyalar kiritiladi.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
B. Umarqulov
67 236-70-00 (2020)

Manzil:

